

O'ZLIKNI ANGLASH ONA TILINI CHUQUR O'RGANISH ORQALI AMALGA OSHADI

TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi

Tillar kafedrasi yetakchi o'qituvchisi

Roza Ermetova Reyimbayevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zlikni anglashda tilning o'rnu va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: adabiy til, millat, o'zlik, xalq, jamiyat, ona tili

Ona tili – har qaysi insonning ma'naviyatida muhim ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vositadir. Milliy o'z-o'zlikni anglash natijasida o'z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O'z-o'zini anglash kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash uchun foydalilanadi, u mas'uliyatni oshiradi. Ajdodlar fidoiyligi, jonkuyarligidan xulosalar qilinadi. Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadrqimmati xalqning, millatning qadrqimmati bilan nechog'lik bogliq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqyealarga daxldorligini anglaydi. Millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri bu til ekan, har bir inson o'z tilini bilishi, uni ulug'lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga ham hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obro'yi, nufuzi oshadi. Til tarixini, uning me'yoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, rivojlanishini millat tarixidan ayri holda o'rganib bo'lmaydi. Yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga erishish va raqobatdosh bo'lish uchun O'zbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz, lekin shuni unutmaslik kerakki, o'zbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O'zbekiston fuqarosi davlat tilini bilishi shart. Hech kim

hech qachon o‘z ona tiliga bo‘lgan hurmatni yo‘qotmasligi kerak. Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. O‘z ona tiliga ega bo‘lmagan xalq mamlakat bo‘lолmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo‘lsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog‘ tushadi. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga bo‘lgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar ko‘lami yil sayin kengayib bormoqda. Binobarin, o‘zini o‘zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e’tiborli bo‘lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart. Bu o‘zligini anglashning muhim ustuvor mezonlaridan biridir. Til nafaqat muammola vositasi - balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o‘z navbatida o‘zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo‘llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham xar bir xalq o‘z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. XXI asr o‘rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo‘lib olishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so‘zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O‘zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta . Qisqa qilib aytadigan bo‘lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o‘z ifodasini topadi. Til - millat ko‘zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili ta’sirida shakllangan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda beba ho asarlar yaratib, dunyonl lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g‘alabalari sharafiga o‘zbek tilida madhiyamiz kuyylanayotir. Biz o‘z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go’zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo’shishimiz kerak. “Til yashasa, millat yashaydi” Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog‘on bo‘ladi va birligimiz musyahkam bo‘ladi. Zero rus tarixchisi

Shobelev aytganidek “Millatni yo’q qilish uchun u yerga qurol ko’tarib borish shart emas, uning tilini, ma’naviyatini, adabiyotini yo’q qilish kerak, shunda millatning o’zi yo’q bo’lib ketadi” degan fikri naqadar to’g’ri ekanligini ko’rishimiz mumkin. O’zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo‘yilgan. O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni uch tamoyilga: umumiylilik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo‘yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi barobarida o’zbek tilining erkin muomalada bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. Dunyoda taniqli mamlakat bo‘lish uchun biz davlat tilining maqomini ko’tarishga erishishimiz lozim. Hozirgi kunda Milliy o’zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog’lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. CHunonchi, milliy o’zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko’tarish zaruriyatini anglab, etadi. Yoshlar qalbi va ongiga milliy o’zlikni anglash tuyg’ularini chuqur singdirish, milliy g’ururni tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifadir. Ushbu vazifa bilan uzbek bog’liq bo’lgan muammo - yoshlarda faol grajdaniq pozitsiyasini shakllantirish, hayotga ongli munosabat, doimo ogoh va hushyor bo’lib yashash tuyg’usini oshirishdir. Zero o’zlikni anglash va komillik ona tilini o’rganish va anglashdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yichaharakatlar strategiyasi.
2. A.S.Sagdullayev, V. A. Kostetskiy. "Tarix qadimgi dunyo" 6-sinf uchun darslik.Toshkent 2017 y.
3. N. N. Azizzodjayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent 2006 y.
4. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar jamlanmasi.Namangan 2017
5. Q.Husanboyeva.Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili.T:Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009 y.
6. B.To’xliyev.Adabiyot o’qitish metodikasi.T:2010 y.